

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

XURSHID ORIPOV

AN'ANAVIY CHOLG'U IJROCHILIGI (NAY)

*Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun
o'quv qo'llanma*

Toshkent

2016

Masʼul muharrir:

Shahnoza OYXONJAYEVA - sanʼatshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Shukurullo AXMADJONOV – Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist

Axmadjon SOBIROV – M.Qori-Yoqubov nomli badiiy jamoalar qoshidagi
«Oʻzbekiston» ashula va raqs ansambli musiqa rahbari

Matrasul MATYOQUBOV – Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi,
«Doʻstlik» ordeni nishondori, Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi «Anʼanaviy
ijrochilik» kafedrasi dotsenti

Ushbu taqdim etilayotgan oʻquv qoʻllanma mumtoz musiqamizni oʻrganish, ustoz naychi-sozandalar ijro uslublarini imkon qadar puxta oʻzlashtirib, mohir sozanda boʻlishni maqsad qilgan yosh ijrochilarning taʼlim olishida munosib xizmat qiladi, degan umiddamiz. U Oliy musiqa oʻquv yurtlarining anʼanaviy ijrochilik boʻlimi talabalariga moʻljallangan. Qoʻllanmadan vohalarga mansub boʻlgan asarlar, Shashmaqom turkumining cholgʻu yoʻllari va ashula yoʻllari, katta ashula uslubidagi asarlar, bastakorlar asarlari, surnay yoʻllarining namunalari oʻrin olgan.

Руководство служит для изучения классической музыки. Руководство предназначено для молодых и начинающих исполнителей в надежде получить соответствующее образование и стремиться стать профессиональным музыкантом и исполнителем. Руководство даёт возможность изучить технику и методику игры на национальном духовом инструменте на примере мастеров музыкантов и великих исполнителей.

Руководство предназначается для студентов музыкальных вузов.

В руководстве имеются произведения как вокальные и инструментальные части Шашмаком, произведения жанра “катта ашула”, произведения композиторов, примеры произведения в духовом инструменте сурнай.

We hope that the presented new educational guide will help to explore the classical music, to study the styles of tube musician teachers and provide worthy education for young musicians who want to be professional musicians who want to be professional musicians. It targets students of the Department of Higher educational institutions of traditional music performance, ways of.

Singing and singing style works, works of composers, traditionally tracks of sunray.

MUALLIFDAN

O'zbek milliy cholg'ularidan biri bo'lmish - nay sozi musiqa san'atimizda muhim o'rin tutadi. Uning an'anaviy yo'nalishdagi ijrochiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, bu asnoda ustoz naychilardan qolgan noyob an'analarni munosib davom ettirish yosh sozandalar zimmasiga o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. Nay ijrochiligi sir-asrorlarini o'rganishda esa maxsus yaratilgan o'quv qo'llanma va darsliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ustozlarimiz Mirza Toirovning «Nay darsligi» (Xalq cholg'ularida ijrochilik bo'limi talabalari uchun), Ahmadjon Sobirovning «Nay navolari» (An'anaviy ijrochilik bo'limi talabalari uchun) qo'llanmasi, Tohir Qahhorovning «Nay navosi» kabi qo'llanmalarining o'rni beqiyosdir.

Ushbu taqdim etilayotgan «An'anaviy nay ijrochiligi» nomli (An'anaviy ijrochilik bo'limi talabalari uchun) o'quv qo'llanma mumtoz musiqamizni o'rganish, ustoz naychi sozandalar ijro uslublarini imkon qadar puxta o'zlashtirib, mohir sozanda bo'lishni maqsad qilgan yosh ijrochilarning ta'lim olishida munosib xizmat qiladi, degan umiddamiz. U Oliy musiqa o'quv yurtlarining an'anaviy ijrochilik bo'limi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ushbu ta'lim yo'nalishi uchun maxsus yaratilgan adabiyotdir. Qo'llanmadan xalq musiqa namunalari, Shashmaqom turkumining cholg'u yo'llari, ashula yo'llari, katta ashula uslubidagi asarlar, bastakorlar asarlari, surnay yo'llarining namunalari o'rin olgan. Qolaversa, ansambl hamda nay sozi jo'rligidagi asarlar ham qo'llanma tarkibiga kiritildi.

E'tirof etish kerakki, xalqimiz qalbidan chuqur o'rin olgan muhtasham Shashmaqom turkumining mushkilot va nasr bo'limlaridagi asarlar, surnay yo'llarida o'z ifodasini topgan kuylar, bastakor va ustoz hofizlarning shinavandalar uchun sevimli bo'lib qolgan kuy hamda ashulalarining nay cholg'usi imkoniyatlariga moslashtirilgan talqinini nota yozuviga olib mazkur qo'llanmaga kiritdik, va ularni nota manbaidan o'qish qulay bo'lishiga ham alohida e'tibor qaratdik.

Jumladan, talabalarga asarlarni o'rganish jarayonida qulaylik yaratish maqsadida asarlarni bo'laklarga bo'lib, ya'ni raqamlar bilan ajratib, milliy ijrochilik bezaklari bilan boyitib, asarning xarakteri va uslubiga qarab nafas olish belgilari va dinamik

tuslarni aks ettirdik. Xususan, nayda ijrochilik nafasiga oid uslubiy tavsiyalar mazkur asarlarni imkonqadar teran anglab, his etgan holda ijro qilinishida yosh sozandalarga yoqullanma sifatida xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Ta'kidlash joizki, mazkur qoullanmadan turli murakkablikdagi ko'pgina asarlar o'rin olgan bo'lib, ular aynan nay ijrosiga moslashtirildi va har biriga alohida izohlar berildi.

Ushbu o'quv qoullanmani yaratishdan maqsad, o'zbek xalqining boy musiqa merosi namunalarini keng omma orasida targ'ib qilish, hozirgi avlod vakillari bo'lmish yoshlarimizni mohir ijrochi bo'lishlari bilan bir qatorda, kelajakda mutaxassis ustoz sifatida kamol topishlari va ulkan musiqiy merosimizning ustozdan shogirdga munosib tarzda yetkazishda ko'prik vazifasini o'tashdan iboratdir.

KIRISH

Milliy musiqa merosimizning anʼanaviy cholgʻu ijrochiligi xususida soʻz yuritish ekanmiz, hozirda uning serjilo, serqirra hamda sayqal topgan pallaga yetib kelganligini alohida eʼtirof etish lozim.

Musiqa sanʼati – insoniyat maʼnaviyatining kalitidir, u orqali dunyoni anglash, tushunish doimo oʻz ijobatini topib kelgan. Shu bois hayotda musiqa bilan oshno boʻlgan, musiqaning sehrli sadolaridan bahra olgan insonlarga ezgu amallarga qoʻl urganlar. Zero musiqa, har qanday ijod turining ilhomlantiruvchi kuchidir. Shu sabab boʻlsa kerak, oʻtmishda yashab ijod etgan olim-u fuzalolar, shoir-u adiblar musiqa bilan oshno boʻlishga intilganlar. Uning sir-asrorlaridan boxabar boʻlishga uringanlar.

Alisher Navoiy taʼbiri bilan aytganda, «Shodlik oshiruvchi xonanda, gʻammi tarqatuvchi sozanda. Bularning har ikkisi hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar»¹.

XIII asrda yashab ijod etgan tasavvuf ilmi allomalaridan Jaloliddin Rumiy hazratlarining oʻn etti ming misradan iborat «Masnaviy»sida: «Tingla nay, andoq hikoyatlar qilur»², – deya koʻhna sozlardan boʻlmish - nay cholgʻusiga alohida taʼrif berilgan.

Nay – oʻzbek milliy cholgʻularidan biri boʻlib, qadim zamonlardan xalq orasida keng ommalashgan. Arxeologik qazilmalar natijasida Samarqandning Moʻminobod qishlogʻidan topilgan, bundan 3300 yil avval suyakdan ishlangan toʻrtta teshikli nayni eʼtiborga olsak, ajdodlarimizning juda qadim zamonlardan bu cholgʻuga oshno ekanliklari ayon boʻladi. Shuningdek, Surxondaryo hududidagi Ayritom shahristonidan topilgan sozandalarning nay, surnay chalib turgan toshga oʻyilgan tasvirlariga asoslanib fikr yuritsak, sozandalik sanʼati, xususan nay sozining qadimiyligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Qadimiy Oʻrta Osiyo tarkibida boʻlgan oʻzbek xalq cholgʻulari koʻp asrlik rivojlanish jarayonida oʻz xususiyatlarini, tovush hosil qilish uslubini saqlab qoldi. Nay, qoʻshnay, surnay, chang, tanbur, dutor, gʻijjak, ud singari milliy sozlar bizgacha yetib keldi.

¹ Navoiy A. Toʻla asarlar toʻplami. 9-jild. "Mahbub ul-qulub". 2011, 468-bet

² Rumiy J. Masnaviyi maʼnaviy. 1-jild. T., 2002y.

Musiqiy sozlarni ilmiy asoslab berish va ularning ovoz registrlariga alohida e'tibor qaratgan holda tahlil qilish borasida qadimdan musiqashunos olimlarimiz o'qzlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Mashhur sozanda va hofiz, bir necha musiqiy asarlar ijodkori Borbad Marviy, musiqashunos Hoja Abdulqodir Maroqiy, Abu Ali Ibn Sino, Qutbiddin ash-Sheroziy, Darvesh Ali Changiy, Najmiddin Kavkabiy, Abdurahmon Jomiy singari allomalarimiz musiqa ijrochiligini ilmiy asoslash bilan birga, o'qzlari ham sozanda sifatida mashhur bo'lganlar va musiqa ilmida ulkan ma'naviy meros qoldirganlar, sozlar ixtiro qilganlar. O'tmish ustozlarimiz barcha sozlar qatorida nay soziga ham alohida e'tibor qaratganlar.

O'rta Osiyolik mashhur alloma Abu Nasr Farobiy o'zining musiqa haqidagi risolasida «cholg'u musiqa, ashulaga jo'r bo'ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulaning boshlang'ich musiqasi va uning oralaridagi cholg'u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi yetmaydigan joyni bo'rttirib, ashula jo'rligini boyitadi», - deya ta'riflagan edi.

Tarixdan ma'lumki, o'tmishda nafaqat olim-u fuzalolar, balki musiqaning zukko ixlosmandi bo'lgan shohlar, vazirlar, sarkardalar ham san'at ahli, ularning ijodiy va ijroviy faoliyatlariga alohida ahamiyat berganlar, lozim bo'lsa ularni munosib taqdirlaganlar yoki aksincha jazolaganlar. Bunga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi rivoyat yorqin misoldir.

Sohibqiron Amir Temur hofiz va sozandalarni yig'ib musiqiy kechalar, o'ziga xos bellashuvlar o'tkazar ekanlar. Kunlarning biridagi davra suhbatida usta naychi haqida so'z ketib, yig'ilganlar uning sozandalik mahoratini oshirib maqtashibdi. Nozik did sohibi Amir Temur ko'nglida qiziqish uygo'nibdi-yu, naychining ezgin nolalaridan eshitishni xohlabdi. Usta naychini chorlab keltiribdilar. Naychi xalqona kuylarning goh unisini, goh bunisini chalib ruhlarga zavq bag'ishlabdi. Shunda Hazrat allaqaysi bir musiqani chalib berishni so'rabdi. Naychi zo'r san'atkor ekanu, ammo Amir Temur aytgan kuyni yaxshi bilmas ekan. U so'rovni rad qilolmabdi-da, chala boshlabdi. Avj pardalardan birida oddiy tinglovchi anglamaydigan, ammo nozikfahm kishi sezadigan darajada xato qilibdi. Kuyni berilib tinglayotgan Amir Temur sezibdi-yu, ammo bildirmabdi. Kuy tugagach, Hazrat sohibqiron unga tahsin aytib, davlat xazinasidan bir qopchiq oltin beribdi.

Naychi tashakkur aytibdi va uyiga ketibdi. Borib qarasa, amir sarbozlari uning uyini buzayotgan emish.

- Hoy nima qilayapsiz? – deb baqiribdi naychi.

- Shoh amrini bajarayapmiz, - deyishibdi unga.

- Yolgʻon aytasiz, - dargʻazab boʻlibdi naychi, - men axir boya Amir Temur huzurida edim-ku?

Sarbozlar ishni toʻxtatmagach, naychi Sohibqiron huzuriga yuguribdi. Voqeadan voqif Hazrat ancha sukut saqlabdi-da, soʻng qatʼiy:

- Olgan tillolaringga bir emas, ikkita uy qurib olsang boʻladi. Sen kuyni buzib, avval birov qurgan uyni buzding, keyin esa mening koʻngil mulkimni buzding! – debdi.

Naychi bu acchhiq haqiqat oldida lol boʻlib, indamay ortiga joʻnabdi...

Koʻngil mulki! Sanʼatga, ijodga bundan ham ortiq baho berish mumkinmi? Darhaqiqat, mukammal yaratilgan har bir kuy, qoʻshiq – bu mustahkam qurilgan bino. Undan zavqlanish, ruhiy ozuqa olish mumkin, ammo buzib boʻlmaydi.

Toʻgʻri, bitta kuy uchun birovning uyini buzish yaxshi emas, ammo insof bilan aytganda minglab odamlarning koʻngil mulkiga aylangan mumtoz asarni bir lahzalik quvsvizlik sabab buzib yuborish ham adolatdan emas.

Nay ijrochiligi tarixiga nazar solar ekanmiz, Abduqodir Ismoilov, Ayub Qodirov, Saidjon Kalonov, Usmon qori kabi benazir naychi sozandalarning asosan yakka ijrochi sifatida el orasida mashhur boʻlganliklariga guvoh boʻlamiz.

XX asrning 20-yillaridan boshlab nay cholgʻusi sozandalar ansambli tarkibida munosib oʻrnini topdi, ommalashdi va bu cholgʻuning mohir ijrochilari yetishib chiqdilar. Yu.Rajabiy, R.Xamdorov, M.Muhamedov, D.Sodatqulov, I.Qodirov, M.Toirov, X.Joʻraev, A.Sobirov, A.Abdurashidovlar shular jumlasidandir.

Nay sozining tarixiy shakllanishi mashhur ustoz naychi ijrochilar nomlari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, har davrning ulugʻ ustoz naychi sozandalari oʻzlarining betakror ijrolari bilan nay cholgʻusini bugungi mukammallashuviga olib keldilar. Musiqa durdonalarini mahorat ila ijro qilib, shu soz uchun maxsus asarlar yaratib, yangi shogirdlar tarbiyalashda ularning xizmatlari beqiyosdir.

ASOSIY QISM

Nay ijrochiligi ixtisoslik fanining maqsadi.

An'anaviy cholg'u (xususan nay) ijrochiligi fanining asosiy maqsadi – an'anaviy sozanda bo'lish uchun o'qishga kirgan talabalarga ijrochilikning sir-sinoatlari xususida belgilangan talablar darajasida mukammal o'rgatishdan iborat.

An'anaviy sozanda talabalar o'z ustozlari yordamida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib (VCD, CD), audio va videoyozuvlar ko'magida musiqiy namunalarni tinglab, kompyuter nota dasturlari, Shashmaqom, Farg'ona va Toshkent maqomlari, hamda mumtoz bastakorlar asarlari ijrosini yetuk san'atkorlar ijro uslublari bo'yicha qo'shimcha ilmiy-uslubiy maqolalarni o'rganib, maxsus darslik va qo'llanmalardan asarlarni o'rganish xususida aniq tasavvurga ega bo'lishlari zarur.

Ushbu fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan asosiy vazifalar.

Bunda talabalar quyidagi yo'nalishlarda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlari zarur:

- sozandalar Shashmaqom cholg'u yo'llarini imkonqadar batafsil o'zlashtirishlari;
- vohalarga xos bo'lgan yirik turkumli cholg'u kuylarini bilishlarini;
- zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishlarini;
- musiqiy asarni tarixiy-nazariy jihatdan tahlil qila bilishlarini;
- asarlarni mustaqil ijro eta olishga o'rganganliklarini.

Quyida har bir kurs talabalari uchun mo'ljallangan asarlarning janrlar bo'yicha namunaviy ro'yxati taqdim etiladi:

I- KURS

Ul kun janon	}	Xalq kuylari
Kelmasmu		
Qalandar I		
Qalandar II		
Sharob I		

Ko'rmadim. D. Zokirov musiqasi.

Tong oromi. S.Jalil musiqasi

Ey chehrasi tobonim. F. Sodiqov musiqasi.
 Bir ishva bilan. M. Murtazoyev musiqasi.
 Aylagach. X. To'xtasinov musiqasi.
 Tasnifi navo. Navo maqomi mushkilot qismi.
 Garduni navo. Navo maqomi mushkilot qismi.
 Tasnifi Segoh
 Garduni Segoh
 Mushkiloti Dugoh

II- KURS

Xojiniyoz II	}	Xalq kuylari
Taronayi Dugoh		
Nay nolasi		
Bir kelsun		
Bayot qashqarchasi		

Zulayho bo'lsang. F.Sodiqov musiqasi.
 Dildor o'zing. F. Sodiqov musiqasi.
 Guljamol. G'. Toshmatov musiqasi.
 Manzur. A. Ismoilov musiqasi.
 Tamanno. M. Murtazoyev musiqasi.
 Vafo qilsa. S.Kalonov musiqasi.
 Tokay. K. Jabborov musiqasi.
 Bo'lmush. O. Xatamov musiqasi.
 Bog'larda bahor. Q. Oripov musiqasi.
 Ey sarvi ravon. S.Kalonov musiqasi.
 Tarjeyi navo
 Mushkiloti segoh
 Nasri segoh
 Ufori mushkiloti segoh
 Muhammasi bayot
 Chorgoh I-II.

Nag'mayi orazi navo

Muhammasi Xusayniy

Sarahbori Navo. Tarona I-II

Mo'g'ulchai navo.

- Mo'g'ulchai navo talqinchasi.
- Mo'g'ulchai navo qashqarchasi.
- Mo'gulchai navo soqinomasi.
- Mo'g'ulchai navo ufarisi.

III- KURS

Nog'ora Bayoti Xalq kuylari
Cho'li iroq

Ey sabo. D. Zokirov musiqasi.

Bilmasang bilgil. Y. Yusupov musiqasi.

Bo'l menga mahbub. F. Sodiqov musiqasi.

Fosh o'lsun. F. Mamadaliyev musiqasi.

Mastonalarga. R. Qurbonov musiqasi.

Yodima tushdi. O. Nuriddinov musiqasi.

O'lmasun. J. Sultono musiqasi.

Ishq seli. T. Jalilov musiqasi.

Ko'ngil. A. Sobirov musiqasi.

Dugoh (Patnisaki yo'li).

Jonim mening (Topmadim).

Mo'g'ulchayi segoh

- Mo'g'ulchai segoh talqinchasi
- Mo'g'ulchai segoh qashqarchasi
- Mo'g'ulchai segoh soqinomasi
- Mo'g'ulchai segoh ufarisi

IV- KURS

Yovvoyi chorgoh-Katta ashula yoqlisi

To muhabbat. T.Jalilov musiqasi.

Mukarram. N.Qulabdullayev musiqasi.

Koshki. Yu. Rajabiy musiqasi.

Naylayin. J.Sultonov musiqasi.

Yaxshiroq. K.Jabborov musiqasi.

Xoh inonma. O. Hotamov musiqasi.

Bahor tongi. M.Muhamedov musiqasi.

Kezarman. G.Toshmatov musiqasi.

O'yo. S. Kalonov musiqasi.

Saraxbori navo

Tarona I

Tarona II

Savti ushshoq

Chapandozi savti navo

Saraxbori Dugoh VI- taronasi

NAY IJROCHILIGIGA DOIR USLUBIY KO'RSATMALAR

Ma'rifatparvar olim va davlat arbobi Abdurauf Fitrat «Nay qamish ma'nosida forsiycha bir so'zdir, bizda brinch (bronza), yoki baqir (mis)dan yasaladur»³, - deya cholg'uga ta'rif bergan.

IX-X asrlarda yashab ijod etgan sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Forobiy o'zining «Musiqa haqida katta kitob» nomli risolasida ta'riflangan nay cholg'usi zamonaviy naydan deyarli farq qilmaydi.

Azaldan sozandalar turli jismlardan tayyorlangan naylardan foydalanganlar. Odatga ko'ra nay sozi ko'proq mevali daraxtlardan - yong'oq, o'rik daraxtidan yasaladi. Chunki mevali daraxtdan yasalgan cholg'u baquvvat, namlikni o'zida ushlash xususiyatiga ega bo'lib, egilib ketmaydi. Bundan tashqari nay sozi qamish (g'arov) va misdan ham yasalgan. Shu bilan birga biz oq metal (alyuminiy)dan yasalgan naylarni ham uchratishimiz mumkin. Amaliyotda keng qo'llaniladigan va hozirgi davrda an'anaviy ijrochilik amaliyotida ko'proq g'arov (bambuk)dan yasalgan naylar qo'llaniladi. Hozirga kelib bas va alt naylari ham qo'llanilmoqda .

Hozirgi an'anaviy nay



Nay yonlama puflab chalinadigan cholg'u asbobidir. Nay cholg'usida yettita maxsus parda-teshikchalar mavjud. Ulardan bittasi cholg'uning yuqori tomonida-puflash uchun mo'ljallangan. Damli cholg'ularda puflash teshigi **“labium”** deb yuritiladi. Oltitasi esa quyi tomonda cholg'uning pardalari hisoblanib, barmoqlar yordamida muayyan tovushlarga ega asosiy pardalar yordamida diatonik tovush qatorining yettita balandlikdagi tovushlar ijro etiladi. Odatda naylar 45-52 sm

³ Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., "Fan", 1993, 33-b.

uzunlikka , 20-30 mm diametrli silindrsimon quvirdan iborat boʻlib, ikki yarim oktava oraligʻidagi tovushqator diapazonga egadir.

Nayning tovushqatori (applikatura) jadvali

barmaq bilan yopiladigan teshiklar

○
Ochiq teshiklar

◐
Yarim ochiq teshiklar

●
Yopiq teshiklar

Yuqorida keltirilgan teshiklardan tashqari nayning oxirida ikkita ustki va ikkita pastki teshiklari bor. Bulardan pastda joylashgan ikkita teshik oʻzining oʻrniga qarab

asosiy tonning balandligini aniqlaydi. Cholgʻuning sozi nayning umumiy uzunligi va diametrining radiusi boʻyicha taqsimlanganligi bois hozirgi naylar qisqaroq koʻrinishga ega.

Nay cholgʻusi oʻziga xos soz boʻlib, tovush hosil qilish boʻyicha «xushtaksimon» cholgʻular oilasiga mansub. Tovush hosil qilish vaqtida, cholgʻuchi tomonidan puflangan kuchli nafas toʻlqini nay teshigining oʻtkir qirrasiga uriladi va u yerda kesiladi. Nay ichiga kirgan nafas yoʻnalishi u yerda aylanma harakat hosil qilib, nay ichiga qamalgan havo ustunini harakatga keltiradi va tovush hosil boʻladi. Nay sozi ijrochidan nafaqat mohirona chalish balki, ijro madaniyatini, psixologik holatni, gavda holatini toʻgʻri ushlashni, diqqatni jamlay bilishni taqozo etadi. Ijro vaqtida sozning holati lab kesmasiga parallel holatda turishi kerak. Bosh va gavyani (qomatni) toʻgʻri tutish zarur. Tirsaklar yengil koʻtarilgan, yelkalar kerilgan, simmetrik, erkin holatda boʻladi. Bularning barchasi koʻkrak qafasining erkin boʻlishini va shu bilan birga erkin nafas olishni taʼminlaydi. Bu tananing toʻgʻri vaziyati boʻlib, unda ijrochining salomatligi (umurtqa pogʻonasidagi oʻzgarishlar)ni muhofaza qilishga imkoniyat yaraladi. Sozanda nayni oʻtirib chalganda, oyoqlarini bir-biriga chalishtirib oʻtirishga ruxsat etilmaydi. Chunki, bu holat nafas olishga yomon taʼsir koʻrsatadi va diqqatni susaytiradi.



Nay sozi imkoniyati keng boʻlganligi uchun sharq xalqlari kuylaridan tashqari, fleyta sozi uchun yozilgan jahon klassik musiqasi namunalari va turli xalq kuylarini ham ijro qilish imkoniyatiga ega.


Ijrochilik holati.

Tovush hosil qilishda toʻrtta ijrochilik omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar lab, til, nafas, barmoqlar harakati hisoblanadi. Puflab chalinadigan asboblarni chalganda ogʻiz muskullarining majmui va labning holati «ambushyur» deb ataladi.


Labning vazifasi: sozandaning ichidan toʻlib kelgan kuchli nafasni nay teshikchasi qirrasiga toʻgʻri yoʻnaltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunda pardani sozlash (0.5 tongacha pasaytirish yoki koʻtarish) va turli bezaklarni chalishda lab va uning mushaklari asosiy rol oʻynaydi:




Nayning diapazoni toʻrt registrga boʻlinadi. Past., oʻrta, yuqori, eng yuqori:




Har bir registr uchun, har xil maʼnodagi tovushlarni hosil qilish uchun, lab muskullarining keskinligi turlicha boʻladi. Pastki registrnlarni hosil qilishda labning keskinligi juda kam:




Oʻrta registrdagi tovushlarni hosil qilishda keskinlik ortadi:




Yuqori registrdagi tovushlarni hosil qilishda labning keskinligi yanada ortadi:




Eng yuqorgi registrda labning keskinlik holati (lab tortishadi, taranglashadi) eng yuqorigi darajaga yetadi:




Ijro paytida sifatli tovushni hosil qilish uchun, lablarning holatiga katta ahamiyat bermoq lozim, chunki tovushning sifati to'la-to'kis shunga bog'liq. Sifatli tovush hosil qilish uchun nayning puflab chalinadigan teshigini, yani "labium"ni pastki labga shunday joylashtirish kerakki, lab teshikning faqat chetigagina tegib tursin, va uni to'rtidan bir qismini berkitsin. Nay lab kesmasiga parallel joylashtirilishi lozim.



Lab, yuz muskullarining o'ng tarafdan ko'rinishi.



Lab, yuz muskullarining chap tarafdan ko'rinishi.



Labyum (lab yordamida teshikni to'rtidan bir qismini berkitilishi)

Nayni ushlash holati va ijro etishdagi holat:



Tilning vazifasi.

Nay chalish jarayonida til ichkaridan tiqilib keladigan nafasni ushlab turuvchi asosiy «klapan» vazifasini bajaradi. Ya'ni til keskin orqaga chekingani zahoti, to'lib turgan nafas nay teshigining o'tkir qirrasiga uriladi va tovush hosil bo'ladi. Shu bilan birga nay ijrochiligida turli shtrixlarni bajarishda ham tilning ahamiyati katta. Nay sozini chalish jarayonida til yordamida **«Tu, Ku»** (tovush) bo'lgini talaffuz etiladi.

Ijro paytida til yordamida turli shtrixlardan foydalaniladi. Bular **stakkato** (italyancha “alohida”, “qisqa-qisqa” degan ma'nosini bildiradi.) usuli - ambushyur teshikning devoriga havo oqimining urishi va bu havo oqimini tezlikda til bilan berkitib qo'yishdir. Tilni tekkazish vaqtida taxminan **«TU»** (tovush) bo'lgini talaffuz etiladi.

Tilni ikki marta tekkazish.

Tilni ikki marta tekkazishda til uchida oddiy urish va tilning orqa qismi bilan urish vaqti-vaqti bilan o'zaro almashib turadi. Tilni ikki marta tekkazishda «tu-ku» bo'g'inlari talaffuz etiladi.

Tilni uch marta tekkazish.

Tilni uchi bilan ikki marta orqasi bilan bir marta urishning ketma-ket almashinishidir. Bu «tu-tu-ku» bo'g'inlari kabi talaffuz qilinadi.

Legato. Tilni tekkazish.

Umumiy liga bilan birlashgan faqat birinchi notada oʻtish orqali tovush hosil qilishdagi asosiy usullar legatodir.

Nonlegato.

Tilning sekin tegishi bilan alohida, bogʻlanmagan tovushlarni hosil qilish usuli.

Portamento.

Tilni mayin tegishi yordami bilan yuzaga keladigan, tovushdan tovushga ravon oʻtishini taʼminlaydigan, tovushlarning maksimal uzunligini ushlab turishidagi umuman davomli havo oqimidan tovush hosil qilish usulidir. Qochirim va bezaklar toʻgʻrisidagi maʼlumot M.X Toirov va A. Petrosyanslarning «Nay» deb nomlangan darsliklarida fleyta soziga moslangan variantda koʻrsatilgan.

Ijrochilik nafasi.

Odatda oddiy nafas inson tomonidan ixtiyorsiz ravishda olinadi. Maʼlumki damli cholgʻular ijrochiligida nafasning oʻrni beʼqiyos. Oddiy nafas bilan ijrochilik nafasi oʻrtasida juda katta farq mavjud. Ijrochilik nafasi ongli ravishda sozanda tomonidan, kuyning xususiyatlari asosida boshqarilishi lozim. Tibbiyot nuqtai nazaridan oddiy nafas 1 daqiqada 16-20 marta olib chiqariladi. Nafas olish va chiqarish vaqtida ijrochilik nafasi, uni olish harakati tez surʼatda, nafas chiqarish harakati, yani nafasni sarflash tejalgan holda amalga oshiriladi.

Ijrochilik amaliyotida nafas uch turga boʻlinadi:

1. **Koʻkrak nafasi** - oʻpkaning yuqori qismida olinadi.
2. **Qorin nafasi** - oʻpkaning pastki qismida olinadi.
3. **Aralash nafas** - ikkala nafasning samarali qoʻllanilishi bilan ifodalanadi (oʻpkaning toʻliq hajmiga olinadi)

Chuqur nafas olishda koʻkrak qafasi har tomonga kengayishi, qorin devori bir oz oldinga koʻtarilishi kerak. Bu hol kuchli nafas chiqarganda koʻkrak qafasining qovurgʻalar va diafragma asta-sekin nafas olganda oldingi holatga kelishi zarur. Biroq haddan tashqari chuqur nafas olish kerak emas. Nafas chiqarganda oʻpkada bir oz qoldiq havo yʼani havo zahirasi qolishi lozim. Oʻmrov suyagining koʻtarilishi, yʼani oʻpkaning yuqori qismi bilan nafas olishdan saqlanish kerak. Uzunroq kuy boʻlaklarini chalish vaqtida koʻproq havo gʻamlab olish talab etiladi.

Professional ijrochilikda aralash nafas asosiy nafaslardan boʻlib, bunda qorinning mushaklari, diafragma nafas kuchini oshirishda va tayanch nuqta vazifasini bajarishda katta rol oʻynaydi. Nay cholgʻusi ijrochiligida tez nafas olib uni sarflash jarayonida bir meʼyorda ravon va davomiyligini taʼminlash lozimdir. Ijro jarayonida sarflanayotgan havoni (puflash jarayonida) kuchsiz va kuchliligi past va baland pardalarni olish uchun zarurdir.

Past pardalarga kuchsiz, baland pardalarga kuchli puflash orqali erishiladi. Bu bilan kuyning dinamik sifatlariga erishilib, ifodaviy xususiyat bilan boyitiladi. Professional ijrochilikda nafas yoʻnaltirish har xil holatlarda turlicha amalga oshiriladi. Nafas kuchining oʻzgartirishi ijro etilayotgan kuyning tempiga, usuliga, uning xarakteriga, tinglovchi ayditoriyasiga, ansambl tarkibidagi boshqa cholgʻularning sadolanishiga, xonandaning ijro xususiyatlariga qarab oʻzgartirishi mumkin. Nay ijrosida tovushlarning toza va tiniqligi muayyan balandlikka erishishligi, puflangan xavoning kuchi va barmoqlarning aniq joylashishiga bogʻliq.

Ijrochilik nafasini rivojlantirish.

Musiqiy tovushlarning damli cholgʻular ijrosida sifatli boʻlishi, ijrochi oʻz nafasini toʻqri qoʻllashiga boʻliq. Bu jarayon xuddi kamonli cholgʻularda tovushning sifati kamonning torlar ustida ravon yurishiga bogʻliq boʻlganidek; yaʼni bunda nafasni kamon tortilishiga qiyoslash mumkin.

Talabalar nafasining toʻgʻri qoʻyilganligi, uning toʻgʻri rivojlantirilishi musiqiy asar ijrosining jozibali boʻlishida asosiy omildir. Bunga ijrochilik nafasini tizimli rivojlanishi orqali erishiladi. Jismoniy mashqlar orqali ham nafasni rivojlantirish mumkin. Ammo ijrochilik nafasi faqatgina mashqlar (etyud va gammalar chalish, shtrixlar ustida ishlash) orqali rivojlantirib boriladi.

Nay chalishni oʻrganayotgan oʻquvchilarni haddan ziyod zoʻriqishlariga yoʻl qoʻymaslik kerak. Ularga nafas olayotganlarida yelkalarini koʻtarmasliklariga (bu hol ayrim oʻquvchilarda kuzatiladi) eʼtibor berish zarur. Sababi koʻtarilgan yelkalar bilan nay chalish, tovushning sifatsiz boʻlishiga olib keladi. Musiqiy asar ijrosi davomida duch kelgan, keraksiz joylarda nafas olmaslikni taʼminlash zarur. Ijro paytida sozanda tomonidan nafas olish va nafas chiqarishning notoʻgʻri qoʻllanilishi, tinglovchining asarni tinglash jarayonida qiynalishiga sabab boʻlishi mumkin.

Talaba nafas olish va uni ijro jarayonida to'g'ri taqsimlashni o'rganishi uchun teleradio boshlovchilari, radio instsenirovkachilar, dublyaj aktyorlari, opera honandalari, teatr aktyorlari, an'anaviy xonandalarning matnga nisbatan nafasni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini kuzatib, o'rganib borishlari katta malaka maktabi bo'ladi, deb hisoblaymiz. Asarga nisbatan nafasni to'g'ri rivojlantirish, uni to'g'ri qo'llash professional ijrochilardan ham birdek talab etilishini o'quvchi sozanda tushunishi kerak.

Ijrochilikda to'g'ri nafas olishni tashkil qilish.

Musiqaning ifoda imkoniyatlari nutqniki kabi cheksiz emas, boisi u bir necha bo'laklardan tashkil topgandir. Musiqa yoki musiqiy asarning bo'laklari musiqiy tuzilma deb yuritiladi. Musiqiy tuzilmalar o'ziga xos xususiyati, vaqt ichra rivojlanib borishiga ko'ra turli xil bo'ladi. Musiqiy tuzilmalarning yakuni va keyingi tuzilmaning boshida sezura belgisi qo'yiladi. Demak, sezura tuzilmalarni bir-biridan chegaralaydi va ikki tuzilma orasida ajratuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Sezura - musiqiy ta'limda «V» belgisi bilan ifodalanadi. An'anaviy ijrochilikda, akademik ijrochilikda va damli cholg'ular sozandaligida notalar va takt ustida joylashtirilgan «V» nafas olish belgisi bo'lib, o'pka va qorin bo'shlig'iga, og'iz va burun bilan to'liq nafas olish kerakligini bildiradi. Ushbu belgi vokal ijrochiligida, damli cholg'u ijrochiligidagi, an'anaviy xonandalikda asosiy nafas olish belgisi hisoblanadi. “” belgisi takt chiziqlari va nota ustiga qo'yilganda yarim nafas, yani o'pkaning quyi qismiga olingan xavo bilan amalga oshiriladigan nafas turidir. Bu nafas, ustozlar ta'biri bilan aytganda “is o'tkazish” yoki “o'g'ri nafas” deb yuritiladi. Bu nafas turidan damli cholg'u ijrochilari faqatgina chuqur malaka va mahoratga ega bo'lganlaridagan keyingina to'laqonli va unumli foydalana olishlari mumkin. Yani cholg'u ijrochiligida bu nafas turidan foydalanishda, malaka va tajribaning o'rnini katta.


Nafas olish mezoni quyidagicha bo'lishi kerak:

1. Tinish belgilarida

Xaffi segox

Yu.Rajabiy notaga olgan
A.Sobirov nay uchun moslashtirgan

I-xoha



2. Choqizilish va ushlab turadigan tovushlaridan keyin

Nay sadosi

M.M. ♩ = 108

M.Muhammedov ijrosidan
T.Qahhorov notaga olgan



3. Jamlanmalardan keyin

Qurbon qaytma

M.M. ♩ = 48

O'zbek xalq kuyi
A.Sobirov notaga olgan va
nay uchun moslashtirgan



4. Garmonik va dinamik tushlarning o'zgarish joyi

Taronayi Dugoh Xusayniy

M.M. ♩ = 92

X.Oripov nayga moslashtirdi




5. Registrlarning sakrash joylarida nafas olinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

Naylayin

M.M. ♩ = 100

J.Sultonov musiqasi
X.Oripov nayga moslashtirgan



Musiqiy namunalarimizda nafas olish joylari boʻlganidek, nafas boʻlish mumkin boʻlgan kuy jumalari ham mavjuddir. Jumladan:

1. Turgʻun boʻlmagan tovush yoki akkordlar

Bahor tongi

X.Oripov notalashtirdi

Senza metrum

1

Nay

Ans.

mp *mf*

2. Oʻtkinchi tovushlardan oldin va keyin

Jonim mening

(Topmadim)

F.Mamadaliyev musiqasi va ijrosi
asosida X.Oripov nay uchun moslashtirdi

Senza metrum

Solo

mf


4

Ansambl

3. Chozilish tovushlari va yetakchi tonlardan oldin nafas olish.

Dugoh

(Patnisaki yoʻli)



Nay chalish jarayonida

a) Tovushlarning tutilish paytida

Nay yallasi

M.M. ♩ = 120

R.Qipchoqov notaga olgan



b) Oʻtkinchi tovushlardan oldin yoki keyin

Tamanno

M.M. ♩ = 120


M.Murtazoyev musiqasi
T.Qahhorov notaga olgan



c) Yordamchi tovushlaradan oldin

Mo`g`ulchai Navo

(Navo maqomidan)




d) Yetakchi tonlarda va choqimli tovushlardan oldin nafas olish tavsiya etilmaydi


Hanuz

M.M. ♩ = 108

Xalq kuyi
M.Toirov notaga olgan



Barmoqlarning holati - yarim egilan tabiiy holatda boqilishi kerak..



Barmoqlar skeleti bosh barmoqdan tashqari barchasi (asosiy, oqirta va tirnoq) uch boqigindan tashkil topgan. Musiqa asboblarini chalish vaqtida, qabul qilingan mezonga koqra, barmoqlarning pardalardagi holati (nayda esa teshikchalar ustidagi holati) **APPLIKATURA** deb ataladi. Nay chalish vaqtida oltita barmoqdan, uchta oqng qoql, uchta chap qoql barmoqlaridan (koqrsatkich, oqirta, nomsiz) foydalaniladi.

Barmoqlar tirnoq boqgining ichki yuzasidagi yostiqlar teshiklarni berkitib turuvchi vazifasini oqtaydi. Sozandaning barmoqlari cholguda erkin harakat qilishi

uchun qulay holatda joylashishi lozim. Nayda tovush hosil qilish uchun barmoqlar nay teshigiga zich yotishi va shunday yopilgan boʻlishi kerakki, havoni chiqib ketishi uchun hech qanday tirqich qoldirmasligi lozim. Yarim yopilgan teshikda tovush hosil qilish uchun barmoqlar teshiklarni yarim ochiq qoldirib, teshiklar ustiga qoʻyiladi. Teshiklarning labiumga yaqin boʻlgan tomonlariga, ya'ni chap tomonga ochib bosiladi.



Barmoqlarning naydagi holati (Oldi taraf)



Barmoqlarning naydagi holati (orqa taraf)

An'anaviy ijrochilikda mavjud bo'lgan «nola, bidratma, kashish, trel, forshlag, furlyato» kabi qochirim bezaklar til, barmoqlar hamda nafas orqali amalga oshiriladi. Nay ijrochiligida barmoqlar asosiy pardalarni hosil qilishda muhim omil hisoblanadi. Nay sozi ichrosi uchun yuqorida keltirilgan ifoda vositalari muhim hisoblanadilar.

Barmoqlarning noto'g'ri holati.



An'anaviy nay ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlari

Nay cholg'usining imkoniyati kengligi va ijro mahorati jihatidan jahon sahnalaridagi nufuzli sozlardan qolishmaydi. Nay o'zbek xalqining puflab chalinadigan yog'ochli asboblari orasida eng ko'p texnik imkoniyatlariga ega bo'lgan musiqiy cholg'dir. Lekin, har bir cholg'u o'zining shakli singari tabiati, imkon chegarasi, xususiyati va o'ziga xos sifatlariga egadir. Shu nuqtai nazardan nay cholg'usi o'ziga xos siru sinoatlari bilan birga o'zgacha tarovati bilan ajralib turadi. Nayning sersayqal, jozibali va go'zal ijrosiga erishish sozandadan yuksak maxorat va chuqur bilim egasi bo'lishni talab qiladi.


Akademik yo'nalishdagi cholg'u ijrochiligi yo'llarida ijro qilishda nayda ko'proq fleyta, damli cholg'ular uslubiga yaqin tarzda ijro qilinadi. Bunda cholg'u imkoniyatini ko'rsatishda turli xildagi shtrixlardan va qochirimlardan

foydalaniladi. Akademik yoʻnalishda nayda stakkato, tilni ikki marta tekkizish, tilni uch marta tekkizish va legato, non legato, portamento shtrixlari ishlatiladi.

Stakatto.



Tilni ikki marta tekkazish



Tilni uch marta tekkazish



Legato.

E.Grig. «Per Gyunt»

dramasiga kirish



Nonlegato.



Portamento.



Quyida ijro vaqtida nayda koʻproq qoʻllaniladigan qochirimlardan bidratmani ijro qilish usullari keltirilgan.



6- teshikni galma-gal tezlikda yopib-ochib, 5- teshikni yopgan holda bajariladi.




1, 2, 3, 4- teshiklarni yopib va 6-teshikni ochgan holda, 5-teshikni tezlikda galma-gal yopib-ochib turish va boshqalar.

Xalq kuylari va bastakorlar asarlari fortepiano va orkestr cholgʻulari joʻrligidagi nay ijrosida hamohanglik bilan yoritiladi. Sayqallashtiruvchi bastakorlar tomonidan nay soziga joʻr boʻladigan orkestr sozlari uchun maxsus hamohanglik yaratiladi. Bu yoʻnalishda sozanda, kompozitor tomonidan yaratilgan asarlarning xarakterini (shoduhurramlik, gʻamginlik, toʻlqinlanish, zorlanish, hayajon, tabiyatdagi oʻzgarishlar goʻzalligini, fasllarning almashinishi....) ochib beradi. Ijro jarayonida musiqaning xarakteri sozandaning gavda holati, tana harakati, yuz ifodasi bilan xarakterlanadi. Lekin, nay sozining oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Ijro paytida koʻproq orkestr yoki fortepiano sozlari hamohangligida ijro etilgani uchun notada yozilgandan tashqariga chiqilmaydi, ijrochi tomonidan notadan tashqari asarni bezaklar qoʻshib ijro etish ruxsat etilmaydi. Ushbu yoʻnalishda asar xarakteridan kelib chiqib, tovush kuchuni oʻzgartiruvchi belgilar hamda shtrixlar asosida ijro qilinadi.


Oʻzbek xalq anʼanaviy musiqa ijrochiligida tovushlarni turli xildagi bezak va sayqallar bilan boyitib ijro etish muhim mezonlardan hisoblanadi. Zero, tovushlarni sayqal bilan ijro etish har bir sharq xalqlari ijrochiligiga xos anʼanadir. asarning kuy ohang mazmunini boyitib, ohang koʻlamini kengaytiradi. Xalqlarning oʻziga xos ruhiyatini ifodalab beradi. Chunki, musiqiy bezak, har bir xalqning milliy anʼanalariga asoslanadi. Milliy musiqa ijrochiligida qoʻllaniladigan bezaklarning maxsus atamalar bilan nomlanishi koʻpchilik sozanda va xonandalarga maʼlum. Masalan: «**Qochirim**», «**Toʻlqinlashtirish**», «**Nolish**», «**Molish**», «**Kashish**», «**Oʻrama**», «**Sapil**» va boshqalar. Ularning ayrimlari tovushning sifatini ham belgilaydi.

Qochirim - oddiy va murakkab melizm (kuyini turlicha qisqa tovushlar bilan bezovchi belgilar)ning barcha turini oʻz ichiga oladi: **Bezaklar**- forshlag turlari; **Titratma** - trel turlari; **Sayqal** - mordent turlari; **Sapil** - nayga xos bezak turi; **Oʻrama** - legato yordamidagi bezak turi. Oʻzbek anʼanaviy musiqasida qoʻllaniladigan bezaklar uch guruhga boʻlinadi. Oddiy, qoʻsh va uchtalik bezaklar.


1. **Oddiy** - bir qoʻshimcha tovush bilan ijro etiladigan bezak. Musiqa amaliyotida "forshlag" deb yuritiladi.



2. **Qoʻsh** - ikki qoʻshimcha tovushlar yordamida hosil qilinadigan bezak.



3. **Uchtalik** - uchta qoʻshimcha tovushdan tashkil topgan bezak.



Ijroda bu bezaklar yangrashi lozim boʻlgan tovushlar hisobida boʻladi. Tajribalar asosida bizga maʼlum boʻlgan ayrim bezaklar xususida baholi qudrat tushuncha bermoqchimiz. Bularni toʻlaqonli izoh etishda ustozlarimiz tomonidan yaratilgan bir qator, oʻquv qoʻllanmalarining mavjudligi ishimizga asosiy turtki boʻldi.

Titratma - ikki yonma-yon tovush tebranmasida hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun tebranishdan iborat boʻlishi mumkin. Bu uslub lab yordamida va qorinda olinadigan nafas orqali ijro etiladi.

Sayqal (Mordent) - bidratmadan tamomila farq qiladi. Agar bidratma uzun va qisqa notalarga (nota choʻzishiga qarab) bevosita taalluqli boʻlsa, sayqal uch yoki besh tovushdan tashkil topadi. Uni ijro etishda dastlabki asosiy notadan uni choʻzishini yarmigacha qisqartiriladi. Sayqalni nota yozuvida quyidagicha belgilanadi:

a) uch tovushdan iborat sayqal - oddiy mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi.



b) Yuqoridagi koʻrsatma - tovushlar oraligʻini anglatadi.

c) pastda (asosiy tovushdan) hosil qilinuvchi yordamchi tovush - oddiy uchirilgan mordent belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi koʻrsatma tovush oraligʻidir.



d) besh tovushdan tashkil topgan sayqal - mordentning melizmatik belgisi bilan belgilanadi. Yuqoridagi ko'rsatma tovushlar oralig'idir.



e) pastdagi yordamchi tovush evaziga erishiladi. Notada ton yoki yarim ton - qo'sh chizilgan mordent belgisi bilan belgilanadi.




To'liqlatish (vibrato) - deyarli barcha xalq cholg'ulari va ashula ijrochiligi uchun xos bezakdir. Nay ijrosida jag, iyak va qorinning titratish yo'li bilan hosil qilinadi. Amaliyotda ushbu bezakdan butun, yarimtalik, choraktalik va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish mumkin. Masalan, "Sarahbori Navo"ning 8, 9-taktlarida bu bezak yorqin ifodalangan:

Saraxbori Navo

M.M.=63-66


(Navo maqomidan)

X.Oripov nay uchun moslashtirdi.



Nolish - yarim tongacha bo'lgan o'ziga xos yirik bitratma. Nay chalganda usul chap, o'ng barmoqlarni bir tekisda ko'ndalangiga harakatlantirish hisobiga erishiladi. Bu bezak belgisi orqali ifodalanadi. Nolish bezagi Chorgoh I dagi I raqam 2-3- va 7-8 taktlarida yaqqol ko'rinadi:

Chorgoh I




Molish - barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor ohista sirgʻaltirish usulidir. U “Glissando”ga yaqin boʻlib, badiiy toʻlqinlatishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Ijroda choʻzimiga qarab molish turlanadi. Ya’ni, tovush chiqarishning bir necha turlari bilan xarakterlanadi.

a) kvartadan oktavagacha va undan ham ortiq intervallarda (pastdan yuqoriga, shuningdek yuqoridan pastga) bir tovushdan ikkinchi tovushga sirgʻalib oʻtish. Bunda sirgʻalish boshlangʻich tovushni oluvchi barmoqdan boshlanadi. Keyingi ton boshqa barmoq bilan olinadi.



b) kichik va katta sekunda hamda tersiya intervallarida pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga bir tovushdan ikkinchi tovushga bir barmoqda sirgʻanib tushish bilan erishiladi.


Amaliyotda bir  barmoqni sirgʻantirish usuli

boshqa (yuqoridagi yoki pastdagi) barmoq bilan almashtirilgan usul ham uchrab turadi.

v) barmoqlarning bir necha yondosh tovushlar (ton yoki yarim ton) boʻyicha birin-ketin sirgʻanishi. Bu usul faqat bir barmoq bilan bajariladi.

Kashish - yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoqlar nayda koʻndalang turgani holda, barmoqni yuqoriga va pastga tortgandek harakat qiladi.

Sayratish (trel, tr)- an’anaviy ijrochilikda tez-tez qoʻllanib turiladigan bezaklardan biridir. Bu sayroqi bezakning mohiyati shuki, ikki yonma-yon asosiy va ustki yordamchi tovushlarni tezkorlik bilan bir meyorda navbatma-navbat ijro etishdir. Bu bezakni ijro etishda, bulbulning sayrashiga qiyoslab ijro etish mumkin.



Oʻrganuvchi sozanda bezaklarni oʻrganish jarayonida qadimdan odat boʻlib kelayotgan, kuylarni xirgoyi qilib jonli ijro bilan olib borishi yaxshi samara beradi. Natijada oʻrganuvchi sozanda nota yozuvlarini jonli sadolanishda eshitib, kuylardagi nafis ohangni, nola va bezaklarni xotirasiga muhrlab oladi. Bu esa sozandaga ijro jarayonida oʻz sezgisi, asarni his etishi, tajribasiga tayangan holatda mustaqil bezaklarni ishlatish imkoniyatini beradi.

Anʼanaviy yoʻnalishdagi nay cholgʻusi xalqimizning durdonasi boʻlmish «Shashmaqom» Mushkilot va Nasr boʻlimi ijrochiligida, Xorazm maqom yoʻllari Fargʻona-Toshkent ijrochilik yoʻllari, xalq dostonchiligi, xalq kuy va ashula, qoʻshiq ijrochiligida, folklor havaskorlik yoʻnalishdagi kuy qoʻshiqlar ijrochiligida, turli tarkibdagi ansambllar va boshqa jamoalar tarkibidagi ijrochilikda hozirga kelib estrada jamoalari tarkibida keng foydalanilmoqda.

Fargʻona-Toshkent vohalari ijro yoʻllarining “erkin, beqaror, yovvoyi” kabi iboralarda yuritiladigan uslublarga xos tarzda ustozlar nay yakkanavozligida ijro qilishgan. Anʼanaviy nay cholgʻusi ijrochiligida “Katta ashula” uslubida nay alohida oʻrin tutadi. Katta ashula va patnisaki yoʻl ijrochiligida xofiz va nay cholgʻusi ijrochisining imkoniyatlari va ovoz diapazoni xususiyatlari oʻzaro teng hisoblanib, bu boshqa uslublardan farqli oʻlaroq nay cholgʻusida alohida oʻrin kasb etadi. Katta ashula va patnisaki yoʻlda nay ijrochiligida turli sharoit va vaziyatda turlicha talqin etiladi. Sozandaning holati, ijro vaziyati taqazo etligan holda har ijroda sharoit oʻziga xos tarzda oʻzgaradi. Shu kutilmagan vaziyatlarni har doim yengish va benuqson mutanosib holda ijro talqiniga erishish uchun sozanda «mohirlik» xususiyatlarini shakllantirish lozim. Sozandaning nay cholgʻusida ijro qilishi paytidagi nafasi, kuy rivojiga qarab ohista, kuchli va juda kuchli puflash (nafas berish) bilan taqsimlanadi. Maʼlumki, musiqiy asarlar ichki tarkibdan bir qator kuy boʻlakchalaridan tashkil topadi. Har bir kuy boʻlagi ham alohida oʻlchamda tugallangan hisoblanadi. Shu bois,

nay ijrochiligida boqlaklar oqz oqrnida toqliq bir nafasda ijro etilishi maqsadga muvofiq boqladi. Ayniqsa bu ashula yoqlidagi asarlarni ijro qilishda kuy boqlaklarini uzmasdan ijro etish talab etiladi. An'anaviy nay ijrochiligining muhim omillaridan biri bu ijrochining diqqati hisoblanadi. Nay ijrochiligi jarayoni tabiiy jarayon boqlib, muhit, muxlis va shina vanda bilan bogqliq sirli holatlarga ega. Toqlamdagi kuy notalari va takt ustiga qoqlayilgan nafas olish belgilari professional ijrochilarning ijro uslublaridan olingan boqlib, professional ijrochi uchun moqljallangan. Oqluvchi sozandaga qiyinchilik tugqlidirishi mumkin boqlgan hollarda, ularning ustozlari tomonidan oqluvchi sozandaning yoshi, ijro imkoniyatiga qarab, ijro qilinayotgan asar xarakteri, usuliga qarab ham nafas olish joylarini biroz oqlzgartirish mumkin.

Nay sozini olib yurish va toqlgqlri saqlash

Odatda ustoz naychi sozandalar sozlarini yonida ya'ni qoqlynida olib yurganlarini guvohi boqlganmiz. Bunga sabab, nay silindri ichidagi havo haroratinining ijrochi nafasining harorati bilan bir xil boqllishini ta'minlaydi. Bu esa oqlz navbatida sifatli tovush hosil boqllishining muhim shartlaridan biridir. Nay cholgqlusining sadolanishi faslga qarab, ob-havoning haroratiga qarab, ijro etilayotgan auditoriya haroratiga qarab oqlzgarib turadi. Qish va yoz faslida nayning sozi 0.5 tongacha oqlzgaradi. Yozda 0.5 tongacha koqltariladi, qishda 0.5 tongacha pasayadi. Shu muhitlarga tezroq moslashish uchun nay sozi tanaga yaqin saqlanib, soz haroratini bir me'yorda saqlanadi.

Yangi tayyorlangan nayda sifatli ijroga erishish uchun cholgqluda koqlp mashq qilib, damli cholgqlu ijrochi mutaxassislari ta'biri bilan aytiladigan boqllsa, cholgqlu sozini "axta qilinadi". Koqlp mashq qilingandan keyin, gqlarov naylarning ichki yuzasining ustki qavatida koqlchish hosil boqladi. Cholgqlu bir necha fasldan keyin ijrochiga va ob-havo injiqliklariga moslashadi. Shu sababli koqlp yillik chalingan nay yangi nayga nisbatan koqlproq qadrlanadi. Vaqt oqltishi bilan gqlarov nay ayrim joylaridan yoriladi, yoriqlar halqalar bilan chegaralanishi mumkin. Sharq mamlakatlari ijrochi sozandalari koqlp yillik chalingan cholgqluni koqlproq qadrlaydilar.

Nay sozida ijro dan soqlng, nayni yaxshilab silkitib quritiladi, uni paxta mato bilan artib, quruq holatgda gqlilofga solish tavsiya etiladi. Nayni havo oqltkazmaydigan kimyoviy usulda tayyorlangan gqlilofda olib yurish tavsiya etilmaydi. Nayni odatda gigiyena nuqtai nazaridan ham boshqa sozandaga berish tavsiya etilmaydi. Nay sozini

sinishdan saqlash uchun, uni uzoq muddat ishlatishga erishish uchun sozni maxsus gʻilofda saqlashni tavsiya etiladi. Yozgi mavsumda, havo issiq boʻlgan paytlarda nayni bodom yogʻi, oʻsimlik yogʻi bilan yogʻlab turiladi. Yogʻlash uchun maxsus choʻp uchiga doka oʻrab nay quvirlariga kerakli miqdorda yogʻ surtiladi. Surtilgan yogʻ nay jismiga singishi uchun sozni maʼlum vaqt ochiq havoda, tabiiy shamolda saqlash kerak. Issiq havo paytida gʻirov va yogʻoch naylar qurib qoladi. Ijrodan oldin sozni chalib, uni holatini kuzatib borish tavsiya etiladi. Chunki, qurib qolgan naydan sifatli tovush chiqmaydi.

Musiq taʼlimi tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Innovatsion texnologiyalar – pedagogik jarayon hamda, oʻqituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, oʻzgartirishlar kiritish boʻlib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Bu uslublarning oʻziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat koʻrsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoniga:

- talabalarning dars davomida befarq boʻlmazlikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning oʻquv jarayonida fanga boʻlgan qiziqishlarini doimiylikining taʼminlanishi;
- talabalarning fanga boʻlgan qiziqishlarini mustaqil ravishda, har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi⁴.

Pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon boʻlib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda, bir maqsadga yoʻnaltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Koʻpchilik pedagoglar pedagogik texnologiyani faqat axborot texnologiyasi bilan bogʻliq hamda oʻqitish jarayonida qoʻllanishi zarur boʻlgan texnik vositalar – kompyuter, masofali oʻqish yoki turli xil texnik vositalar yordamida mashgʻulot olib


⁴ Nurmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. “Istyeʼdod”, T., 2008


borish, deya tushunadilar. Lekin bu masalaga erkin yondashish boʻlib, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – oʻqituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bogʻliq.

Oʻqitish jarayonida maqsad boʻyicha kafolatlangan natijaga erishishda qoʻllaniladigan har bir taʼlim texnologiyasi oʻqituvchi va talaba oʻrtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkisi ijobiy natijaga erisha olsa, mana shu oʻqitish jarayoning asosi hisoblanadi. Tabiiyki, har bir fan, har bir darsning oʻziga xos texnologiyasi bor. Shunga koʻra biz ham quyida anʼanaviy ijrochilik yoʻnalishi uchun mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holda, fanga doir muayyan mavzularni yoritamiz:

KLASTER USLUBI

“Shashmaqom” tarkibidagi “Navo” maqomi cholgʻu boʻlimining Muxammasi Bayot kuyi misolida:





Doni Zokirovning «Ey sabo», «Koʻrmadim» nomli ashulalari

Insert texnologiyasi asosida

“V” – *men bilgan ma’lumotlarga mos.* D.Zokirov ijodiga mansub “Ey, sabo”, “Koʻrmadim” nomli ashulalar misolida. Har ikki asar ham A.Navoiy gʻazaliga bastalangan (1944 yil). “Ey, sabo” ashulasining birinchi ijrochisi mashhur san’atkor Saodat Qobulova boʻlsa, «Koʻrmadim» asarini ilk bor taniqli opera xonandasi Nasim Xoshimov ijro etgan. Mazkur ashulalar dastlab bir ovozli, ya’ni unison tarzida boʻlib, ular milliy cholgʻu ansambli joʻrligida ijro qilingan. Keyinchalik ular garmoniyalashtirilib, solo va orkest ijrosi uchun moslashtirilgan.

“+” – *men uchun yangilik.* Musiqashunos Sodir Vohidov oʻz ilmiy ishlarida (“Uzbekskaya sovetskaya pesnya”, 1976) xususan “Koʻrmadim” ashulasi haqida yozar ekan, “D.Zokirov asarlarining koʻpchilik qismi oʻzbek musiqa folklori manbalariga yaqinligi, koʻp jihatdan an’anaviy boʻlishi bilan bir qatorda mustaqil ham original asarlardan ekanligini”⁵, ta’kidlaydi. Shuningdek S.Vohidov mazkur ashulaning romans varianti yaratilganligi xususida ma’lumot berar ekan, ““Koʻrmadim” romansining kuy yoʻnalishi oʻzbek milliy kuylari uchun xarakterli boʻlgan xususiyatlarni saqlagan holda, bir qator oʻziga hos tomonlarga egadir. Kompozitor u qadar murakkab boʻlmagan garmonik vositalar fonida romans kuyini yaqqol eshitilib turishini

⁵ Axmedov M. Doni Zokirov. T., 1995, 104-bet

ta'minlagan"⁶, deya biz an'anaviy ijrochilarga yangilikdan xabar beradi. Sababi bu asarni faqat mumtoz ashula sifatida bilar edik, va bu biz uchun yangilik bo'ldi, deyish mumkin.

“?” – *men uchun noma'lum*. D.Zokirovning ushbu ikki ashulasi II jahon urushining eng dahshatli, og'ir yillarida yaratilgan bo'lib, ular motamsaro oilalar, qayguga cho'mgan xalqning ko'nglidan joy olib, odamlarda kelajakka umid uyg'ota oldi. Ta'kidlash joizki, odamlarning ruhini ko'tarish o'sha davrda juda zarur edi. Aytish mumkinki, “Ey, sabo” va “Ko'rmadim” ashulalari bu borada ayni muddao bo'ldi.

Asarlarning tuzilishiga kelsak, “Ey, sabo” ashulasining avjida ustoz Xoji Abdulazizning mashur “Gulzorim” asari ohanglarini eshitish mumkin.

“Ko'rmadim”da esa bastakorning maqom ohanglaridan foydalanganligi kuzatiladi.

“- “ - *men bilgan ma'lumotlarga zid*. Xalqimizning durdona asarlariga aylangan «Ey sabo», «Ko'rmadim»dek namunalarni yaratgan ajoyib sozanda, bastakor, dirijyor, jamoat arbobi, O'zbekiston xalq artisti Doni Zokirovning xizmatlari tahsinlarga sazovordir. O'zbek musiqa san'ati olamida bastakor-sozanda, o'ziga xos ijrochilik uslubiga ega bo'lib, o'zinig yashab ijod qilgan davriga bo'lgan qiziqishi nihoyatda kuchli edi. U yaratgan xilma-xil ashula va qo'shiqlar, musiqali dramalardan olingan ariyalar estrada yo'nalishi ijrochilarining repertuaridan hozirgacha o'rin egallab kelmoqda. Lapar, qasida, tantanavor madhiya, vals, marsh kabi turli janrdagi ijod namunalari D.Zokirovning serqirra ijodkor ekanligidan darak beradi.

Ilava qilingan asarlarning nota matniga qisqacha izoh:

Yuqorida qayd etilganidek, asarlarni nota matnidan o'qish qulay bo'lishi uchun ularni eshitalishiga nisbatan bir oktava pastda bayon etdik. Tabiiyki, bunda an'anaviy nay ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlari ham hisobga olindi. Bunda alloma Abu Nasr Forobiyning «Inson ovoziga yaqin tovush chiqaradigan asboblardan rabab va damli asboblardir, ular ovozga juda yaxshi taqlid qiladilar. Rabab va surnay ovozga ayniqsa yaxshi taqlid qila oladi» kabi fikri ham bu tanlovimizga asos bo'ladi deb

⁶ Shu manba, 108-bet

o'ylaymiz. Bunda Forobiy «rabab» deganda g'ijjakni, «surnay» deganda nay cholg'ularini nazarda tutgan deyiladi.

Ta'kidlash joizki, naychi sozanda o'zi ijro etadigan asarlarni nafaqat nota matnidagi, balki boshqa sozlar ijrosidagi, xonandalar va ansambl ijrosidagi variantlarini ham tinglab borishi, ularni muntazam ravishda xirgoyi qilib yurishi yahshi natija beradi.

Ma'lumki, ijro amaliyotida «maqomlar yoki yirik shakldagi an'anaviy musiqa asarlarini ijro etish imkoniyatlari har bir cholg'u sozida turlichadir» degan tushuncha bor.

Tabiiyki, haddan ziyod murakkab belgili nota yozuvi ijrochiga qiyinchilik tug'diradi. Hozirgi kunda har bir sozanda kuy matnini o'rganishda nota yoki musiqiy yozuvga tayanadi, albatta.

Iste'dodli sozandalarning o'zlari ham ijro jarayoniga ijodiy yondashib, nota yozuvida aks ettirilgan bezaklarga qo'shimcha qilishlari, to'ldirishlari mumkin. Ya'ni, asarni ichki xirgoyi qilish orqali yanada mustahkamlash yahshi samara beradi. Zero, nafas bo'lingan joylarda asarning turli xususiyatlariga, sifatiga putur yetkazish ehtimoli mavjud. Shu bois ham ijrochilikda bu mezonni to'g'ri amalga oshirib kuylash juda muhimdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, damli cholg'ularda ijrochilikning yevropacha yo'li - nafas olish uslubida ishlanadi.

a) Nafas yo'li

b) Soz va ohangni o'zaro mutanosib tarzda ijro etish.

Mazkur qo'llanmadan joy olgan asarlar aynan nay sozi uchun moslashtirilgan va notalashtirilgan. Asarlar o'quvchi sozandalar bilan bir qatorda professional sozandalarning ham ijro repertuarlaridan joy oladi degan umiddamiz. To'plamga:

- Xalq kuylari;
- Vohalarga mansub bo'lgan asarlar;
- Shashmaqom cholg'u yo'llari;
- Shashmaqom ashula yo'llari;
- katta ashula;
- patnisaki yo'llari;
- surnay yo'llaridan namunalar ham kiritildi.

Mavzularga doir nazorat savollari

- 1.** Sharq xalqlari musiqa amaliyotida qo'llaniluvchi nay va naysimon cholg'ular haqida bilasizmi?
- 2.** O'zbek an'anaviy nay cholg'u ijrochiligida qanday uslublar mavjud?
- 3.** Ustoz naychi-sozandalar ijro uslubi haqida ma'lumotga egamisiz?
- 4.** Sharq allomalaridan kimlar milly cholg'ularga (xususan nay cholg'usiga) ta'rif bergan?
- 5.** Yurtimizda arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan qanday cholg'ularni bilasiz?
- 6.** Alloma Jaloliddin Rumiyning nay xususidagi fikrlari qaysi asrlarga mansub?
- 7.** Sozandalik san'ati xususida nimalarni bilasiz?
- 8.** Kuylarni ijro etishda (xususan nay cholg'usida) qaysi omillarga ahamiyat berish lozim?
- 9.** Ijrochilik madaniyati xususida so'zlab bering.
- 10.** Nafas mezonlari haqida nimalarni bilasiz?
- 11.** Ijrochilik nafasini rivojlantirish uchun qanday choralarni qo'llash zarur?
- 12.** Nay soziga xos ijro bezaklari xususida qanday ma'lumotlarga egasiz?
- 13.** Nay cholg'usining ijrochilik holati haqida so'zlab bering.
- 14.** Oddiy nafas va ijrochilik nafasi o'rtasida qanday farq bor?
- 15.** Ijrochilikda to'g'ri nafas olishni tashkil etish uchun nimalarga ahamiyat berish zarur?
- 16.** Xalq cholg'ularidagi ijro uslubi, an'anaviy ijro uslubidan nimasi bilan farq qiladi?
- 17.** Nay sozini olib yurish va uni saqlash qoidalarini bilasizmi?
- 18.** Professional naychi-sozanda bo'lish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?

QO'LLANMAGA KIRITILGAN ASARLARGA QISHQACHA IZOHLAR

I.Xalq kuylari

Ul kun janon

Xalq kuyi. Ustoz naychi sozandalar repertuarlaridan o'rin egallagan asar. Asarning ikki xil doira usulidagi ijro variantlari mavjud. Asarni dastlab o'rganayotgan vaqtda zarbul qadim usulida o'rganish tavsiya qilinadi.

O'zbekiston radiosi "Oltin fondi"da saqlanayotgan variant asosida notalashtirildi. Asani sozanda va bastakor Dadaali Soatqulov ijro etgan.

Hojiniyoz

Mumtoz musiqa merosimizning namunalari azaldan yirik shaharlar, vohalar yohud bastakorlar nomlari bilan atalgan. Ustoz san'atkorlar bergan ma'lumotlarga ko'ra Hojiniyoz ham atoqli ism bo'lib, bu shaxs Toshkentda yashab ijod etgan bastakordir. "Hojiniyoz" nomli asarning azaldan ikki namunasi mavjud bo'lib, ular Hojiniyoz I va Hojiniyoz II deb yuritilgan. U aksariyat sozandalar tomonidan cholg'u yo'li sifatida ijro etilgan. Asarning surnay yo'llari bilan ijrosi ham sozandalar ijro repertuaridan joy olgan. Asarning hofizlar tomonidan Navoiy g'azallari bilan aytiladigan ashula yo'li ham mavjud. Hojiniyoz I, II Shashmaqomning ikkinchi guruh sho'balari va ularning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma kabi tarkibiy va yakunlovchi Ufar qismlari asosida professor R. Qosimov tomonidan turkum shakliga keltirilgan.

Qalandar

Qalandar I (Soyaiy) o'zbek xalq musiqa merosida «Qalandar»lar nomi bilan mashhur. Xalq orasida ikki nomda yuritiladi: Soyayi hamda Qalandar I.

Bu asar Farg'ona vodiysi va Toshkentda keng ommalashgan asarlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, bu asarning ikkinchi qismi ham mavjud bo'lib, u Qalandar II deb yuritiladi. Mazkur ashula 3/8, 3/4 o'lchovli chapandoz usulida yaratilgan. Va Qalandar I ning lad-pardasi hamda ohangi asosida bastalangan. Aytish joizki, bu ashulaning III, IV qismlari ham mavjud; ularda sur'at yanada jonlanib, kuy yo'li ham birmuncha rivojlantirilgan.

II. Katta ashula (Patnisaki yoʻli)

Katta ashulalarning yakka ijroga moʻljallangan cholgʻu yoʻllari, yaʼni patnis cholgʻu yoʻllari mavjud boʻlgan ashulalarning cholgʻular uchun yaratilgan variantlaridir. Patnis cholgʻu yoʻllarining mavjudligi, katta ashula ohangining mustaqilligi, kuy mazmunining oʻziga xosligi, taʼsirchanligi, kuylarning keng diapazonligi, boy badiiy vositalarga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu asosan Fargʻona vodiysiga xos uslub. Ochiq havoda, katta yigʻinlarda, toʻy-tomoshalarda ijro qilingani uchun ham Katta ashula yoʻllari deb nomlangan boʻlishi mumkin.

Asosiy xususiyatlari:

Professionallik (ijrochi professionallik talablariga javob berishi lozim)

Taʼsirchanlik.

Erkin talqin etish.

Ijro anʼanalariga boʻysunish va rioya etish.

Badihagoʻylik.

Jonim mening (Topmadim)

Xalq orasida «Topmadim» deb ham yuritiladigan bu asar, oʻzbek musiqa sanʼatiga ulkan hissa qoʻshgan bastakor va xofiz F. Mamadaliyev ijodiga mansub. U katta ashula uslubida boshlanib, usul rivojlantirilgan ushbu asarni hozirda xam koʻpchilik xonanda va sozandalar oʻz ijro repertuarlariga kiritganlar. Masalan, X. Xasanov, A. Soliyev, Oʻzbekiston xalq xofizlari S. Niyozov Abdunabi Ibrohimovlar ijrolaridan kuzatishimiz mumkin. Nay cholgʻusi yakkanavozligida ham bu asar oʻzgacha talqin etiladi.

Nay nolasi

Fargʻona-Toshkent vohasiga xos ijrochilikning erkin (beqaror, yovvoyi, daydi) ijro yoʻllaridagi asar. Asar muhitga qarab ijro etilishni talab qiladi. Asarning Bozgoʻy qismida nafas taqsimoti, ijro auditoriyasiga qarab rivojlanib borishi ham mumkin. Bu sozandaning sezgisi, shnavandalar bilan muloqotiga bogʻliq.

Bir kelsin

Patnisaki yoʻldagi katta ashula. «Bir kelsin» asarini oʻrganuvchi sozanda toʻliq matnni yod olgandan soʻng, eshituvchi auditoriyaga qarab, oʻzining mahoratini namoyon qilishi mumkin boʻladi.

Dugoh. Patnisaki yoʻl

Ustoz naychi sozandalar ijrolarini oʻrganish jarayonida Katta ashula uslubi patnisaki yoʻlda ijro qilinganda, bir vaqtning oʻzida oktava, kvarta, kvinta intervallari ham qoʻshilib ijro qilinganligini kuzatamiz. Bu ustoz naychilarning kuchli nafasga va yuksak mahoratga ega boʻlganliklaridan dalolat beradi. Patnisaki tarzidagi Dugohda kuy boʻlaklari birdan oʻn ikkigacha boʻlgan boʻlaklarga taqsimlangan. Fargʻona, Toshkent maqom yoʻllari tarkibidagi Dugox, ustoz sozanda Maxmudjon Muxamedov ijrosida oʻzgacha talqin etilgan. Patnisaki yoʻlda ijro etiladigan ushbu asarning hassos sozanda Maxmudjon Muxamedov ijro etgan varianti notaga olindi.

III. Maqom namunalari

Navo maqomi

«Shashmaqom» turkumining uchinchi maqomi – Navo boʻlib, u oʻrta asrlarda mashhur maqom yoʻllaridan sanalgan. Navo oʻzining kuychanligi va ohangdorligi, yoqimli «bulbul navosi»ga oʻxshash kuyi bilan ajralib turadi. Afsonaga koʻra, Navo maqomini «Dovudiy nagʻma» deb ham atashgan. Navoning cholgʻu yoʻllari xalq kuylariga yaqin boʻlib, insonda toʻy-hashamlarda hosil boʻladigan kayfiyatni uygʻotadi. Ularning usul surʼati biroz tezlashgan boʻlib, surnay kuylaridek sadolanadi. Navo cholgʻu yoʻllarida asosiy kuy mavzusi maqomga xos (hashamatli) ruhiy holat hamma qismlar boʻylab saqlanib qoladi.

Nasr boʻlimining ikkinchi guruh shoʻbalari uchta turkumdan – Navo moʻgʻulchasi, Navo savti va Navo mustahzodlaridan iborat boʻlib, har biri besh qismli shaxobchalarini oʻz ichiga olgan. Ulugʻvorlik va chuqur lirik hissiyot ashula yoʻllarining xarakterini tasvirlaydi.

Navo maqomi tarkibidagi Moʻgʻulchai Ufarning kuy rivoji hamda ijro uslubi boshqa moʻgʻulchalar ufaridan butkul farq qiladi. U odatdagi oʻzidan oldin kelgan ashula yoʻllarini izidan yurmay, asosiy pardaga nisbatan olti parda baland boshlanadi va boshqa moʻgʻulcha shaxobchalari boʻysungan umumiy doiradan chetga chiqadi.

Tasnifi Navo

Navo maqomi cholgʻu (Mushkulot) boʻlimining boshlangʻich qismi. Shashmaqom turkumidagi dastlabki kuylar tasnif kuylaridan iborat. Mazkur atamaning maʼnosi ijodiy, yaratilgan, tasniflangan asar demakdir. Tasnif maqomlar cholgʻu yoʻlining asosiy mavzusi, negizi boʻlib, ohang va maʼlum kuy boʻlaklari oʻzidan keyin keladigan ritmik yoki kuy variatsiyalari sifatida xam uchrab turadi. Biz nay cholgʻusi imkoniyatlarini xisobga olib, unga xos boʻlgan pardadan ijro etishni tavsiya qilamiz. Shu tufayli kuyni nay cholgʻusiga moslab yozishga xarakat qildik. Yozuvda aks etgan barcha bezak va shtrixlarga ijro jarayonida amal qilinsa maqsadga muvofiq boladi.

Tarjei Navo

Navo maqomining cholgʻu boʻlimidagi Tasnifi Navodan keyingi ikkinchi qismi. Tarjei nomli kuylar Rost maqomidan tashqari Shashmaqom turkumining barcha maqomlarida (Buzruk, Navo, Segoh, Iroq) mavjuddir.

Tarjeʼining maʼnosi- qaytarish, takrorlash, naqorat kabi mazmunlarni anglatadi. Takt oʻlchovi $2/4$. Tarjei Navo ijrochilikda koʻproq ommalashgan. Tarjei Navo Tasnifi Navoga qaraganda bir oz tezroq surʼatda ijro etiladi.

Garduni Navo

Navo maqomining cholgʻu boʻlimidagi uchinchi qismi. Gardun atamasining lugʻaviy maʼnosi osmon gardishi, taqdir, qismat boʻlib maqomlarda esa maʼlum doira usulini anglatadi. Bu kuy oʻziga xos va murakkab ritmik-usul tuzilishi bilan ajralib turadi. Unga oʻzaro almashinib turuvchi ikki va uch xissali oʻlchov birliklari ($2/4+3/4+3/4$) xosdir. Kuy jumllarining ritmik xususiyati bevosita ana shu oʻlchovlar orqali namoyon boʻladi. Bu asarni ijro etishda shartli belgilar muhim ahamiyatga ega.

Nagʻmai Orazi Navo

Nagʻmai Oraz (Oraz - yuz maʼnosida boʻlib, maʼlum bastakorning nomi boʻlsa kerak). Chunki Oraz, Oraziy taxallusi bilan yozadigan shoirlar nomi adabiyot tarixida koʻp uchraydi. Nagʻmai Oraz asosan Tarjei Navoga asoslangan boʻlib uning maʼlum melodik variatsiyasidir.

Muxammasi Bayot

Shashmaqom tarkibidagi Navo maqomining mushkilot boʻlimiga mansub asar. Shashmaqom tarkibida muxammaslarning umumiy soni oʻn oltita. Bu cholgʻu asarlar oʻtmishda eng mashhur maqom cholgʻu yoʻllaridan sanalgan, ularda kuy va

usul mutanosibligi ancha mukammal va murakkab boʻlgan. Muxammaslarda bir-biriga oʻxshash ohang vositalari koʻplab uchraydi. Muxammasi Bayot kuyi oʻzinig jozibadorligi, taʼsirchanligi, tinglovchiga oson yetib borishi bilan mashhurdir. Navo maqomi tarkibidagi Muxammasi Bayot, Muxammasi Xusayniy asarlari akademik Yunus Rajabiy nota yozuvi asosida nayga moslashtirildi.

Muxammasi Xusayniy

Shashmaqom tarkibidagi «Navo» maqomining mushkulot boʻlimiga kiruvchi ushbu kuyni shinavandalar sozandalar ansambli ijrosida koʻp marotaba tinglashgan. Muxammas - beshlangan, beshlik maʼnosini anglatadi, bu ibora asosan gʻazaliyotda keng qoʻllanib kelinadi. Muxammasning takt oʻlchovi 2/4 xissali metroritmik oʻlchovga asoslangan, umumiy doira usuli 16 taktni tashkil etadi. Har bir xona va bozgoʻy murakkab doira usulida vazmin surʼatda ijro etiladi. Musiqashunoslar fikriga koʻra, Muxammasi Xusayniy atamasi, shu uslubda ijod etgan bastakor nomi bilan atalgan.

Saraxbori Navo

Har bir maqomning ashula boʻlimi Saraxbor deb ataladigan shoʻbalar bilan boshlanadi. Saraxbor ikki soʻzdan tuzilgan boʻlib, «Sar» forsha bosh, boshlanish, «Axbor» arabcha xabar soʻzining koʻpligidir. Saraxborlar ogʻir va vazmin doira usulida ijro etiladi. Saraxbori Navoda birinchi xat (sifra) daromad, ikkinchi(sifra) xati miyon parda, uchinchi(sifra) xat Namudi Oraz, toʻrtinchi, beshinchi (sifralar) xatlari Namudi Navo, oltinchi xati Miyon xat (parda)ning takrorlanishi va ashulaning tushirilish qismidir. Saraxbori Navo, Navo Maqimining surnay yoʻllarini ham eslatadi. Saraxbori Navoda ikkita tarona mavjud. Tarona maqomlar ashula boʻlimida asosiy shoʻbalarning tarkibiy qismi sifatida keladi. Saraxbori Navoning birinchi taronasi nasr doira usulida ijro etiladi. Saraxbori Navoning taronalari biri ikkinchisining davomiga oʻxshab silliq qoʻshiladigan ashula yoʻlidir. Taronalarda uchraydigan kuylar xarakati murakkab boʻlishi bilan birga, eshituvshiga yengil va xuschhaqchaq kayfiyat bagʻishlaydi. Saraxbori Navo taronalari bilan ijro etilgandan soʻng suporish bilan yakunlanadi. Talqinlardan oldin keladigan suporish asosan talqin doira usulida ijro qilinadi.

Chapandozi savti Navo

Shashmaqomning Nasr boʻlimi, ikkinchi guruh shoʻbalari tarkibidan joy olgan. Chapandoz usulidagi ushbu asar, murakkab ritmik oʻlchovli, yani 3/4, 3/8 oʻlchov va ritmlarning almashinuvidan tashkil topgan boʻlib, ijrochidan katta mahorat talab qiladi. Oʻzbekiston radiosining Oltin fondida saqlanayotgan «Maqomchilar» ansambli ijrosidagi hamda Fattohxon Mamadaliyev ijro etgan namunalarini oʻrganuvchi sozandalarga eshitish tavsiya etiladi. Navo namudining pardalari murakkabligi, nay cholgʻusiga moslashtirib ijro etish oʻquvchi sozanda uchun qiyinligini, sozanda imkoniyatlarini hisobga olib, notada yozilgan soddalashtirilgan variantda ijro qilishi ham mumkin.

Taronai Dugoh

Xalq orasida «Bosh ustuna» deb yuritiladigan ushbu asar ham nay cholgʻusida oʻzgacha sadolanadi. Ushbu asarning ustoz sozandalar ijrosidagi talqinlari Oʻzbekiston radiosi xazinasida saqlanmoqda. Ushbu asarni patnisaki tarzidagi, doira sozi bilan joʻrnavezlikdagi hamda fortepiano doira joʻrligidagi va nay yakkanavezligidagi ustozlarning ijro variantlarini oʻquvchi sozandalarga eshitish tavsiya qilinadi.

Saraxbori Dugoh VI-taronasi

Musiqqa merosimizning ijrochilik sohasiga nazar tashlasak, u serqirra, serjilo va borgan sari sayqallashib borayotganligiga guvox boʻlamiz. Bu sohada akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari benihoya kattadir. Saraxbori Dugohning VI-taronasi akademik Yunus Rajabiy tominidan zargarona yaratilib, qoʻshilganligi ushbu ishlarning namunasi sifatida bizga maʼlum. Oltinchi tarona chapandoz usulida, suporish bilan, $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{8}$ ritm-oʻlchovi asosida bastalangan. Kuy Bobur gʻazaliga bogʻlangan. Oʻzbekiston radiosi xazinasida saqlanayotgan, sozandalar ansambli joʻrnavezligi va nay cholgʻusi yakkanavezligida Saraxbori Dugohning VI-taronasini tinglash oʻquvchi-sozandalarga tavsiya etiladi.

Chorgoh

Toshkent, Fargʻonada mashhur boʻlgan maqom turkumlariga kiradi. Shashmaqom ashula boʻlimining birinchi va ikkinchi qismlariga kirgan Saraxbor, Nasr, Savt, Mugʻulcha kabi maqom shoʻbalaridagi tuzilish tartibida ishlangan. Chorgox I oʻzining ulugʻvorligi, yoqimlilik bilan Saraxbori Dugohning maʼlum kuy shakli

sifatida yuzaga kelgan. Chorgohlarning patnisaki yoʻldagi variantlari hassos naychi sozandalar repertuarlaridan keng oʻrin olgan. Oʻzbekiston radiosining «Oltin fondi»da naychi sozandalar tomonidan ijro qilingan turli variantlari saqlanmoqda.

Savti Ushshoq

Shashmaqom tarkibidagi Rost maqomi nasr (ashula) boʻlimining II guruh shoʻbalaridan joy olgan Savt qismi Yu. Rajabiy nota yozuviga asoslanib, nay sozi ijrosiga moslashtirildi.

Savti Ushshoqda kuy daromadini yuqori registrda takrorlovchi-dunasr ketidan Namudi Uzzol ulanadi. Bunda Dunasr ashulaning boshlangʻich qismini keyingi namudga ulovchi vositadir.

Mushkuloti Segoh

Mushkuloti Segox Fargʻona-Toshkent vohasining mashhur cholgʻu yoʻllaridandir. U koʻproq tanbur, dutor, rubob, gʻijjak hamda surnay yoʻllarida ijro qilingan. «Meros» ansambli ijrosidagi Nasri Segoh hamda Mushkuloti Segoh Uforisi variantlari ushbu qoʻllanmada nay cholgʻusiga moslab notalashtirilgan.

Nogʻora Bayoti

Asar Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari asosida yartilgan. Unda Bayot maqomining ohanglari seziladi. Asarning surnay sozida ijro etilgan variantlari ham mavjud. Ushbu asar naychi sozanda Nusrat Inoqov ijrosi asosida notalashtirildi. Doira usulining murakkabligi, nim pardalarning uchrashi sababli oʻquvchi sozandaga kuyni boʻlaklab yod olish tavsiya etiladi. Oʻquvchi sozandalarga kuyni oʻrganish jarayonida qulaylik yaratish maqsadida asar 1 dan 6 gacha kuy boʻlaklarga taqsimlanib notalashtirildi. Qiziquvchilar uchun Oʻzbekiston radiosi xazinasida ushbu asarning patnisaki yoʻlda ijro etilgan namunisi mavjudligini maʼlum qilamiz.

IV. Bastakorlik ijodiga mansub asarlar

Koshki

Akademik Yu. Rajabiy musiqasi. Xalq orasida taniqli asar. 3/8, $\frac{3}{4}$ oʻlchovidagi murakkab asarlar sirasiga kiradi. Asar nay cholgʻusida ham oʻzgacha sadolanadi.

Yunus Rajabiy nay sozining benazir ijrochisi boʻlganliklari bizga ma'lum. Shuning uchun ijro qilgan ashulalarida, bastalagan asarlarida kuylarning bir-biriga ulanishi, nafasni matnga nisbatan qoʻllanilishi nay ijrochiligi an'analariga mutanosib keladi.

«Koshki» ashulasi koʻpgina hofizlar repertuarlaridan oʻrin olgan boʻlib, Hasan Rajabiy, Boqijon Sattorov, Mashrab Ermatov ijrolarida xalqning sevimli ashulasi sifatida tinglanib kelinmoqda. U an'anaviy ijrochilikka oid tanlovlar dasturlarida, ijroga tavsiya etilgan asarlardan biri sifatida mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan.

Oʻlmasun

Taniqli bastakor, ustoz san'atkor, xalq xofizi Joʻraxon Sultonov musiqasi. 3/8, 3/4 oʻlchovidagi murakkab usulli asarlar sirasiga kiradigan, xalq orasida mashhur asarlardan. Nay cholgʻusida ham oʻzgacha sadolanadi.

Naylayin

Joʻraxon Sultonov musiqasi. Xalq xofizlari Joʻraxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovlar hamnafasligidagi ashula variantlari xalqimiz va shinavandalarga yaxshi tanish. Ushbu asar Fargʻona vodiysi ijro an'analari asosida yuzaga kelgan boʻlib, Joʻraxon Sultonov ijrochilik maktabining yorqin namunalaridan hisoblanadi. Asar Fargʻona vodysiga xos janrlaridan boʻlmish katta ashula uslubi asosida yaratilganligi yaqqol sezilib turadi. Shu bois ijroda ustalik va shaxdamlikni talab qiladi. Nay cholgʻusi talqinida ham bu asar oʻzgacha sadoga ega.

Vafo qilsa

«Vafo qilsa» deb nomlangan bu asar bastakor Saidjon Kalonov ijodiga mansub. Xabibiy soʻzi bilan xalqimizga, shinavandalarga xonandalar Farogʻat Raxmatova, Matluba Dadaboyevalarning ijrolari orqali yaxshi tanish. Asarning gʻijjak va ansambl joʻrnavezligidagi cholgʻu varianti Oʻzbekiston radiosi xazinasiga Oʻzbekiston xalq artisti A. Ismoilov tomonidan yozilgan. Asar nay cholgʻusiga xos shtrixlar, bezaklar bilan boyitilib, notalashtirildi. Ushbu asar nay cholgʻusi yakkanavozligi va ansambl joʻrligida ham tinglovchilarga zavq berib, boʻlajak sozandalarning ijro repertuarlaridan biriga aylanadi degan umiddamiz.

Yodima tushdi

Bastakor Otavali Nuriddinov ijodiga mansub asar. Ustoz sozanda Turg'un Alimatov dutor cholg'usida xonanda Gulsara G'oiyeva bilan hamkorlikdagi ijro variantlari ko'pchilik shinavandalarga tanish. Nay sozida ham bu asar o'zgacha sadolanadi.

Tokay

Komiljon Jabborov ijodiga mansub asar. Ustoz xonanda Komuna Ismoilava, xonanda Tojibar Azizovalarning ijrolari xalqimizga yaxshi tanish. «Tokay» asarining ikkinchi marotaba qaytarilishida ijrochi mavzudan chetga chiqmagan holda o'z ijodiy yondashuvini ham namoyon qilishi mumkin. Asar mukammal o'zlashtirilgandan so'ng o'quvchi sozanda muhitga qarab, asarni yuqori tonlarda ham ijro qilishi mumkin.

Yaxshiroq

Mazkur asar Komiljon Jabborov ijodiga mansub. Mohir sozanda va xonandalar zamonamizning ko'zga ko'ringan ustoz sa'antkorlaridan Gulomjon Xojiqulov hamda Ahmadjon Dadayevning ijrolari orqali xalqimizga yaxshi tanish. Asarning nay sozi ijrosidagi talqini O'zbekiston radiosi xazinasidan joy olgan.

Mukarram

Mukarram deb nomlangan kuy xonanda va bastakor Ne'matjon Qulabdullayev tomonidan bastalangan. Mashhur o'zbek raqs ustasi Mukarrama Turg'unboyevaning xotirasiga bag'ishlab yaratilgan asar. Bu asarni o'ragnish jarayonida o'quvchi sozandalarga Ozbekiston radiosi xazinasida saqlanayotgan nay cholg'usi va ansambl ijrosidagi variantini tinglashni tavsiya etamiz.

Ey, chexrasi tobonim

Faxriddin Sodiqov ijodiga mansub asar. Xonanda Komuna Ismoilova tomonidan ijro qilingan varianti xalqimizga juda yaxshi tanish. Bu asarni o'rganuvchi sozanda yaxshi o'zlashtirgandan so'ng, muhitga qarab yuqori tonlarda ham ijro qilishi mumkin.

Bahor tongi

Asar hassos sozanda M. Muxammedov, bastakor va sozanda M. Mirzayev bilan hamkorlikda yaratilgan. Nay sozi va ansambl ijrosida juda jozibali sadolangan varianti O'zbekiston radiosi xazinasida saqlanmoda. Kuyning jozibasi bir vaqtning o'zida oktava intervallari qo'shib ijro etilganligida ham namoyon bo'ladi. Asarni notalashtirish jarayonida oktava intervallarini ham ifodaladik. O'rganuvchi sozandalar

uchun bu ijro usulini oʻzlashtirish qiyinchilik tugʻdirsa, sozandaning ijro imkoniytalariga qarab asarni soddaroq talqinda ijro etish ham mumkin.

Bogʻlarda bahor

Bastakor va sozanda Qobiljon Oripov qalamiga mansub asar. Asarning ikkita rubobda ijrosi va orkestr ijrosidagi variantlari mavjud. Biz uni nay sozida ijro qilish uchun moslashtirdik.

Orifxon Xotamov bastalagan asarlarga sharh.

Orifxon Xotamov nay sozida ham yaxshi ijrochi boʻlganliklari bizga maʼlum. Bastalagan asarlarida nafasning matnga nisbatan qoʻllanilishi nay ijro uslubiga yaqin. Kuy jumllarining bir-biriga ulanishi naydagi kabi oʻtkazish uslubi, jumlaning ikkinchi marotaba takrorlanishida kuy boʻlagining boʻrttirilishi nay imkoniyatlaridagi kabi qoʻllaniladi. Shuning uchun boʻlsa kerak, u kishining asarlarini nay yakka navozligida ijro qilish ijrochiga qulayliklar yaratadi.

Boʻlmish

Bastakor Orifxon Xotamov qalamiga mansub asar. Bu ashulani ustoz Orifxon Xotamov ijrosida xalq sevib tinglagan. Asar oʻzining xalqchilligi tufayli uni hozirda ham koʻpgina xonandalar mohirona ijro qilib kelmoqdalar. Shu jumladan, nay sozida ham ushbu asar oʻzgacha sadolanadi. Asarni shuningdek, milliy cholgʻular ansambli hamda doira joʻrligida, nay yakkanavozligida ijro qilish mumkin.

Xoh inon, xoh inonma

Atoqli hofiz va bastakor Orifxon Xotamov yaratgan mazkur asar koʻplab taniqli, el suygan xonandalar tomonidan ijro qilingan. Ashula oʻzining ohangdorligi va jozibasi bilan barcha musiqa ixlosmandlarini maftun etgan, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Taʼkidlash joizki, ushbu asarni nafaqat xonandalar, balki sozandalard ham ijro etishni birdek xush koʻradilar. Bunga Abduxoshim Ismoilov kabi mohir sozandalarning ham qoʻl urganlari yorqin misoldir. Shu bois bu mashhur ashulaning nay ijrosiga moslashtirilgan variantini oʻquvchilarga taqdim etishni lozim topdik. Asar 4/4 oʻlchovidagi doyra usulida boʻlib, lya frigiyy – lya doriy – lya frigiyy lad-pardalar uyushmasiga mos keladi.

Bir ishva bilan

«Bir ishva bilan» asari Muxtorjon Murtazoyev tomonidan bastalangan boʻlib, u bastakorning mashhur «Fargʻona tong otguncha» nomli ashulasiga oʻzining ohangi, lad-pardasi bilan yaqin turadi. Bu asar ikki xil usulda, ya'ni «zarbul qadim» va «Fargʻona tong otguncha» ashulasi usulida ijro etiladi. Nay ijrosi jarayonida kuy sur'atini jonlantirish maqsadga muvofiq. Ushbu asar nay sozida ayniqsa oʻzgacha sadolanadi.

Manzur kuyi

Bastakor va sozanda Abduxoshim Ismoilov bastalagan kuy. 4/4 oʻlchovli Ufarga yaqin usulda, raqs xarakteriga mos holatni aks ettiruvchi asar. Uni sozanda va ustoz naychi A. Sobirov ijro etganlar. Asarni oʻrganuvchi nota matniga qoʻshimcha xirgoyi qilib yodlashi nazarda tutiladi.

T.Jalilov. «To muhabbat» yoki «Ovvoraman»

T. Jalilov ijodiga mansub «To muhabbat» yoki «Ovvoraman» nomli ashula ilk bor taniqli xonanda Fotima Boruxova ijrosida yangragan boʻlib, keyinchalik uni sozanda va bastakor Dadaali Soatqulov nay cholgʻusiga moslashtirib ijro etganlar. Mazkur ijro hozirgacha MTRKning oltin fondida saqlanmoqda. Asar 3\4, 3\8 oʻlchovida boʻlib, u Dugoh maqomining tarkibiy qismi boʻlmish Talqinchai Savti Chorgoh asosida yaratilgan.

Tamanno

Ushbu asar qoʻqonlik ustoz bastakor Muxtorjon Murtazoyev ijodiga mansub boʻlib, xalqimiz orasida juda ommalashgandir. U bir qator xonanda va sozandalar tomonidan ijro etilgan. Xassos sozanda M.Muxamedov ijrosidan nota yozuviga olingan.

Guljamol, Kezarman

Ustoz sozanda va bastakor Ganijon Toshmatov tomonidan yaratilgan mazkur asarlarning gijjak sozi ijrosidagi talqini musiqa shinavandalariga manzur boʻlgan, ta'kidlash joizki, ular nay sozida ham oʻzgacha sadolanadi.

Yovvoyi Chorgoh

«Yovvoyi Chorgoh» nay cholgʻusiga moʻljallangan boʻlib, u mashhur «Chorgoh» shoʻbasining ohanglari asosida yaratilgan. Kuyning tuzilishi va baland pardalarga intilib rivojlanishi, kuy jummlarining nafas birligida chalinishi, asar nozik, jarangdor va taʼsirchan chiqishiga sabab boʻlgan.

Manzur

Taniqli bastakor va sozanda Abduxoshim Ismoilov bastalagan ushbu kuy 4/4 oʻlchovli, Ufar usuliga yaqin usulda boʻlib, raqsobop, shoʻxchan xarakterda. Asar ustoz naychi-sozanda Ahmadjon Sobirov ijrosi asosida notalashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Yu. Rajabiy. «Ozbek xalq musiqasi». I jild. Toshkent. 1955 y.
2. Yu. Rajabiy. «Shashmaqom». II, III jildlari. Toshkent. 1970-1975 y.
3. R. Qosimov. «Rubob navolari». Toshkent. 1993 y.
4. R. Qosimov. «Anʼanaviy rubob ijrochiligi». Toshkent. 1999 y.
5. M.Toshmuxamedov. «Gʻijjakda anʼanaviy ijrochilikni oʻzlashtirish». Toshkent. 1999 y.
6. S. Azizboyev. «Gʻijjak navolari». Toshkent. 1999y.
7. A. Sobirov. «Nay navolari». Toshkent. 2000y.
8. M. Toirov. «Nay» darsligi. Toshkent. 2002y.
9. M. Ermatov.»Anʼanaviy xonandalik». Toshkent. 2003y.
10. A. Jalilov.»Kommuna Ismoilova». Toshkent. 2009 y.
11. M.Ahmedov. «Doni Zokirov». Toshkent., 1995 y.

MUNDARIJA

I. Kirish.....	
II. Asosiy qism.....	
1. Nay ijrochiligi ixtisoslik fanining maqsadi.....	
2. Fanni oʻzlashtirishdan kelib chiqadigan asosiy vazifalar.....	
3. Nay ijrochiligiga doir muhim uslubiy koʻrsatmalar.....	
4. Ijrochilik holati-nafas.....	
5. Ijrochilik nafasini rivojlantirish.....	
6. Nafas olishni tashkil qilish.....	
7. Anʼanaviy nay ijrochiligining oʻziga xos xususiyatlari.....	
8. Nay sozini olib yurish qoidalari.....	
9. Innovatsion texnologiyadan foydalanish.....	
10. Ilova qilingan asarlarga qisqacha izohlar.....	
11. Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	

СОДЕРЖАНИЕ.

I. Введение

.....
....

II. Основная часть

.....

1. Цель предмета исполнительства на духовом инструменте
най.....

....

2. Основные задачи возникающие в связи с развитием
предмета.....

3. Основные методические показания к исполнению на духовом
инструменте най.....

4. Дыхание-постановка.....

5. Развитие дыхания исполнителя.....

6. Организовывать дыхание.....

7. Особенности традиционного исполнения.....

8. Правила содержания инструмента при себе.....

9. Применение инновационных технологий

10. Краткое описание к произведениям.....

11. Список использованной литературы.....

CONTENT.

I.	Introduction.....	
		
II.	Main	
	part.....	
		
1.	The aim of tube performance rationing.....	
2.	The main tasks of	
	subject.....	
3.	An important method instructions about tube performans...	
4.	Respiration of the performance condition.....	
5.	Improvement of the performans respiration.....	
6.	Organizing of respirating organs.....	
7.	The main peculiarity of traditional tube performance.....	
8.	The rules of csring a	
	tube.....	
9.	The use of innovation technology.....	
10.	The breaf comments for appendix.....	
11.	The list of used literature.....	